

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.T.20.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ALLAMOV RAXMATULLA GULMIRZA O‘G‘LI

**GURLAN GILI ASOSIDA KERAMZIT OLISHNING SAMARADOR
MASSA TARKIBLARI VA TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Allamov Raxmatulla Gulmirza o‘g‘li
Gurlan gili asosida keramzit olishning samarador massa tarkiblari va
texnologiyasini yaratish3

Алламов Рахматулла Гулмирзавич
Разработка эффективных составов масс и технология получения керамзита
на основе Гурленской глины.....21

Allamov Rakhmatulla Gulmirzaevich
Elaboration of effective mass compositions and technology for the obtaining
production of expanded clay based on Gurlen clay39

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....42

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.T.20.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ALLAMOV RAXMATULLA GULMIRZA O'G'LI

**GURLAN GILI ASOSIDA KERAMZIT OLISHNING SAMARADOR
MASSA TARKIBLARI VA TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

02.00.13 - Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T3038 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boyjanov Islom Rajabboyevich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna
texnika fanlari doktori, professor

Dosanova Gulzar Maulenbergenovna
texnika fanlari falsafa doktori, (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.30.12.2019.T.20.03 raqamli Ilmiy kengashning «__» _____ 2026 yil soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1uy. Tel.: (99861) 223 - 60-47; faks: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 337- raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1uy. Tel.: (+99861)223-60-47, faks (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil «__» _____ dagi №__ raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Reymov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., prof., akademik

R.Q.Qurbaniyazov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
kotibi, t.f.d., dotsent

Sh.N. Turemuratov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
k.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda keyingi yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarishda energiya va resurs tejankor texnologiyalarni qo‘llab mahsulot olish, shu bilan birga yuqori sifatli innovatsion issiqlik izolyatsiyalovchi qurilish materiallarini olish uchun samarador massa tarkiblarini ishlab chiqish yetakchi o‘rinlarni egallamoqda. Bu yo‘nalishda, yuqori haroratlarda kuydirish natijasida olinadigan, g‘ovakli to‘ldiruvchi hisoblangan yengil vaznli keramzit shag‘ali ishlab chiqarishda energiya sarfini kamaytirish texnologiyasini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda innovatsion texnologiyalar asosidagi energiya samarador qurilish materiallarini yaratishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga bu yo‘nalishda keramzit massalarini kuydirish va ko‘pchish vaqtda xomashyo aralashmalarida sodir bo‘ladigan jarayonlarni tadqiq qilish va ularni ketma-ketligi, gaz hamda suyuq fazalarni hosil qilish jarayonlari va unga ta’sir qiluvchi omillar, keramzit granulalarining faza tarkiblari va strukturasi shakllanish jarayonlari, kimyoviy-mineralogik tarkiblarni va texnologik rejimlarni mullit, anortit, kvarts va boshqa kristallarning hosil bo‘lishiga ta’sirini o‘rganish, yangi xomashyo materiallari va sanoat chiqindilari asosida past haroratda ko‘pchiydigan va xossalari yaxshilangan yengil vaznli keramzit olish imkonini beruvchi tarkib va usullarni ishlab chiqishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikada qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati hozirgi vaqtda jadal rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda bizning respublikamizda bu sohani rivojlanishiga, shu jumladan uy-joy qurilishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo‘nalishida «...sanoat siyosatini davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish...»¹ bo‘yicha muhim vazifalar qayd etilgan. Shu sababli qurilish materiallari sanoatini tez rivojlantirish va diversifikatsiyalash, mahalliy mineral xomashyolarni qayta ishlash uchun investitsiyalarni jalb qilgan holda samarali massa tarkiblarini va arzon gilli xomashyo resurslari va to‘g‘rilovchi qo‘shimchalarni qo‘llab past haroratda g‘ovakli to‘ldiruvchilarni ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi” va 2019 yil 20 fevraldagi PF 4198-son “Qurilish materiallari sanoatini tubdan yaxshilash va kompleks rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, hamda 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2021 yil 9 iyundagi PF-6244-son “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022 yil 21 fevraldagi PF-139-son “Uy-joy qurilishi va qurilish materiallari sanoatini qo‘llab-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 yanvardagi PF-60 son «2022-2026 yillarda O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II «Energetika, energo- va resurs tejamkorlik» va VII. «Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya fanlari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Gilli xomashyo materiallari asosida, ularga turli tabiiy qo‘shimchalar va chiqindilar qo‘shib, yuqori sifatli keramzit olish uchun tarkib va usullarni ishlab chiqish va mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha S.P.Onatskiy, I.A.Gervids, G.I.Knigina, N.I.Makridin, J.C.Guband, H.H.Thone, P.Gorman, V.V.Eremenko, E.A.Kolesnikov, V.P.Petrov, N.G.Chumachenko, V.Z.Abdiraximov, K.A.Bisenov kabi dunyoning yetakchi olimlari keng ko‘lamda ilmiy izlanishlar olib borishgan va ahamiyatli natijalarga erishgan.

Mahalliy xomashyo va boshqa ikkilamchi resurslar asosida yuqori haroratli kuydirishda ko‘pchiydigan, g‘ovak strukturali keramzit olish, uni ishlab chiqarish uchun kompozitsiyalarni yaratish va tayyor mahsulot xususiyatiga texnologik omillarni ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha L.M.Botvina, B.A.Asqarov, A.A.Tulaganov, U.A.Gaziev, A.M.Eminov, Z.R.Kadirova, B.K.Xojametova, A.P. Purxanatdinov kabi mamlakatimiz olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan va keramika, shu jumladan keramzit materiallar texnologiyasiga o‘zining ahamiyatli hissasini qo‘shgan.

Olib borilgan tadqiqotlarda, hozirgi vaqtda ijobiy natijalarga erishilganligiga qaramasdan, Respublikamizning, shu jumladan Quyiamudaryo hududi mahalliy gilli xomashyolari va boshqa resurslari asosida yuqori sifatli keramzit materiallari olish uchun samarali massa tarkiblarini yaratish, ularni ishlab chiqarish jarayonlarini, faza tarkiblarini, fizik-mexanik xususiyatlarini hamda g‘ovakligini o‘rganish, g‘ovakli to‘ldiruvchilarni olishning energiya tejamkor texnologiyalarini yaratish masalalari bugungi kunda yetarlicha o‘rganilmaganligini ko‘rsatadi va bu borada ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarurati mavjud.

Dissertatsiya mavzusining Dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №11/2021 “Mineral xomashyolar va sanoat chiqindilari asosida halq xo‘jaligi mahsulotlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Gurlan gili asosida samarador massa tarkiblarini va keramzit olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Gurlan koni gilini kimyoviy-mineralogik tarkibi va boshqa sifat xossalarini aniqlash;

Gurlan koni gilini kuydirishdagi texnologik xususiyatlarini, ko‘pchish va mineral hosil qilish jarayonlarini o‘rganish;

Gurlan koni gilini istiqbolli mahalliy to'g'rilovchi qo'shimchalar bilan kompozitsiyasida keramzit olishning samarador massa tarkiblarini yaratish;

Gurlan gili va to'g'rilovchi qo'shimchalarni ko'pchish, struktura hosil qilish, faza tarkibi va keramzit namunalarining fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sirini tadqiq qilish;

samarador massa tarkiblaridan keramzit olishning texnologik sxemasini ishlab chiqish;

Gurlan gili asosidagi keramzit olish samaradorligining texnik-iqtisodiy hisoblarini amalga oshirish;

Gurlan gili asosidagi yangi tarkibli keramzit olish bo'yicha ishlab chiqilgan texnologiyani sanoat sharoitida sinovdan o'tkazish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Gurlan koni gidroslyudali gili, gossipol smolasi va Tuproqqal'a barxan qumi kabi massa tarkibiga kiritiladigan to'g'rilovchi qo'shimchalar, hamda ular asosida ishlab chiqilgan keramzit namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti tajribaviy keramzit namunalarining fizik-mexanik, texnologik xususiyatlarini, texnologik rejimlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida zamonaviy fizik-kimyoviy (rentgenofazaviy, DTA, optik va elektron-mikroskopik) va keramzit olish texnologiyasining an'anaviy tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Gurlan koni gili kimyoviy-mineralogik tarkibiga ko'ra, tarkibida kvars, kaolinit, dala shpati va boshqa minerallarni ahamiyatsiz miqdorida gidroslyudali xomashyo guruhiga kirishi birinchi marta aniqlangan;

Gurlan gilining kimyoviy, fizik-mexanik va texnologik xususiyatlarini tavsiflovchi asosiy oksidlar miqdori va asosiy ko'rsatkichlariga ko'ra, mineral tarkibi "Keramzit shag'ali, toshi va qumi" ishlab chiqarish uchun qo'llaniladigan GOST 32026-2012 talablariga javob berishi hamda ushbu gil ko'pchish darajasi bo'yicha o'rta ko'pchiydigan (ko'pchish koeffitsienti 3,45 %) va o'rtacha ko'pchish intervaliga (50 °C harorat) ega bo'lgan gidroslyudali gillar guruhiga tegishli ekanligi asoslangan;

o'rtacha kimyoviy-mineralogik tarkib, mayin disperslik darajasi (64 % dan yuqori) va mayin dispers erkin kvarsning kam miqdordaligi, jadal kuydirishda bu gilga oson suyuqlanuvchanlik va ko'pchishni hamda uni keramzit olishda ishlatish imkonini berishi isbotlangan;

ilk bor Gurlan gili asosida gossipol smolasi va Tuproqqal'a barxan qumi kabi mahalliy to'g'rilovchi qo'shimchalarni qo'llab samarador keramzit massalari ishlab chiqilgan;

birinchi marta keramzit olishda gossipol smolasi yuqori haroratlarda pirogenetik xarakterga ega bo'lgan holda uglerodgacha parchalanib (ya'ni ko'mirlashib) qaytaruvchi rolini o'ynab, ko'pchish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, ya'ni maqbul kuydirish haroratida tajribaviy massalarini hajmiy zichligini kamaytirishi aniqlangan;

maqbul massadan olingan tajriba namunalarining mikrostrukturasi etalondan ancha mayda g'ovakli strukturasi, yangi hosilalarning ko'p darajasi va shuning natijasida yuqori fizik-mexanik xususiyatlari bilan farqlanishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Gurlan koni gilini tarkib va xususiyatlarini kompleks tadqiq qilish natijasida Gurlan gilining asosiy oksidlar miqdori va asosiy ko'rsatkichlariga ko'ra, mineral tarkibi "Keramzit shag'ali, toshi va qumi" ishlab chiqarish uchun qo'llaniladigan GOST 32026-2012 talablariga javob berishi aniqlangan;

Gurlan gilini istiqbolli mahalliy to'g'rilovchi qo'shimchalar bilan birga keramzit massa tarkibida ishlatish, nisbatan past 1020-1080°C kuydirish haroratida yaxshilangan fizik-mexanik xususiyatli mayda g'ovakli keramzit shag'alini olish mumkinligi aniqlangan;

olingan tarkiblar asosida fizik-mexanik xossalari bo'yicha respublikaning mavjud keramzit korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlaridan ustun bo'lgan keramzit shag'alini olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

samarador keramzit massalari tarkibida Gurlan gilini qo'llash, etalon massaga nisbatan kuydirish haroratini 70-100 °C ga pasaytirish imkonini berishi, yoqilg'i-energetik resurslarni tejashi va keramzit shag'alini tannarxini pasaytirishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarini davlatlararo va O'zbekiston milliy standartlari usul va talablariga muvofiq olinganligida, tajribalarni muvofiqlik sertifikatlariga ega qurilma va jihozlarda, zamonaviy fizik-kimyoviy (rentgenofazaviy, DTA, optik va elektron-mikroskopik) tahlil usullarini qo'llab bajarilganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gilli komponentlar asosida to'g'rilovchi qo'shimchalar bilan olingan keramzit granulari namunalarining asosiy fizik-mexanik va texnologik o'ziga xosligining xomashyo komponentlarning xususiyati va miqdoriga, ko'pchishdagi fizik-kimyoviy jarayonlariga bog'liqligini asoslash va o'rnatish bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati Gurlan koni gili asosida GOST talablariga javob beruvchi, Respublikaning keramzit ishlab chiqarish uchun xomashyo bazasini kengaytirishga xizmat qiladigan keramzit shag'ali olishning, yangi samarador tarkiblarini va texnologik rejimlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gurlan gili asosida mahalliy qo'shimchalarni qo'shilgan samarador tarkibdan keramzit ishlab chiqarish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Gurlan gili asosida keramzit olishning samarador massa tarkiblari va texnologiyasi "Azkamar" MChJ da amaliyotga joriy qilingan ("O'zbekiston qurilish materiallari sanoati" Korxonalar Uyushmasining 2024 yil 27 dekabrda № 02/15-4101 sonli ma'lumotnomasi). Natijada keramzit granularini ko'pchitish haroratini 100 °C ga pasaytirish va mavjud standart GOST 9757-90 talablariga mos keluvchi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini bergan.

Ishlab chiqilgan keramzit shag'ali tarkibi «Triumf gornyak» MChJ korxonasida amaliyotga joriy etilgan ("O'zbekiston qurilish materiallari sanoati"

Korxonalar Uyushmasining 2024 yil 27 dekabrda № 02/15-4101- sonli ma'lumotnomasi). Natijada, keramzit olishda Gurlan koni gili va Tuproqqal'a barxan qumi hamda sanoat chiqindisi gossipol smolasidan foydalanish hisobiga keramzit pishirish harorati 70-100 °C ga pasaygan, keramzit massalaridan past haroratlarda (1050-1080°C) pishirib olingan keramzitning fizik-mexanik xossalari yaxshilangan, ko'pchilik koeffitsienti - 4,45 ga, siqilishga chidamliligi 2,1 MPa gacha oshirilgan, hajmiy og'irligi esa 380 kg/m³ ga kamaytirilgan keramzit donalarini ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta halqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan 5 ta ilmiy maqola, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarni (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning „**Adabiyotlar sharhi**“ deb nomlangan **birinchi bobida** ilmiy-texnikaviy adabiyotlarda nashr etilgan, xomashyo aralashmalarini tanlash, tarkiblarni ishlab chiqish, fizik-kimyoviy, fizik-mexanik va texnologik xususiyatlari, olish usullari, kuydirish jarayonlari, ko'pchilik, faza o'tishlari va issiqlik ishlov berishda sopolakda minerallarni hosil bo'lishi, keramzit va ular asosida dunyoda, shu jumladan O'zbekistonda issiqlik izolyatsion materiallar ishlab chiqarish texnologiyalari masalalari bo'yicha tahlil natijalari va ishlarning muhokamasi keltirilgan. Berilgan xususiyatli qurilishda ishlatiladigan issiqlik izolyatsion materiallar olish maqsadida keramzit granulalar ishlab chiqarish uchun O'zbekiston Respublikasining mineral-xomashyo resurslari muhokama qilingan. Nashr qilingan ishlarni tanqidiy tahlili va muhokamasi asosida mazkur tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning „**Eksperimentlar olib borish uchun qabul qilingan tadqiqot usullari, tadqiqot ob'ektlarini tanlovini asoslash**“ deb nomlangan **ikkinchi bobida** tajribaviy namunalarning fizik-kimyoviy tadqiq qilishning zamonaviy usullari, keramika qurilish materiallarini dastlabki xomashyolari va g'ovak hosil qiluvchi o'xir komponentlarining tarkibi va miqdorini texnologik xossalarni bog'liqligini o'rnatish uchun qo'llanilgan uskuna va jihozlar keltirilgan. Kimyoviy-mineralogik tarkiblar, mineral hosil bo'lishi va issiqlik ishlov berishdagi

fazaviy o‘tishlar fizik-kimyoviy tahlil usullari bilan tadqiq qilingan. Tajribaviy namunalarning asosiy texnologik ko‘rsatkichlari qurilish keramikasi texnologiyasining bir qator mavjud standartlari talablari bo‘yicha sinalgan.


Shu bilan birga ikkinchi bobda tadqiqot ob‘ektlarini tanlovi asoslangan. Keramzit massalarini ishlab chiqishda tadqiqot ob‘ekti sifatida Gurlan koni gidroslyudali gili, paxta gudroni Respublikaning yog‘-moy kombinatlarining chiqindisi - gossipol smolasi va Tuproqqal’a massivi barxan qumi tanlangan.

Dissertatsiyaning **“Gurlan koni gilini fizik-kimyoviy tadqiq qilish va ular asosida keramzit massasining samarador tarkiblarini ishlab chiqish”** deb nomlangan **uchinchi bobida** Gurlan koni gilini fizik-kimyoviy tadqiqi natijalari keltirilgan.

Gurlan koni gilini fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganishda kimyoviy, rastr elektron-mikroskopik, rentgenografik, kompleks termografik kabi fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari qo‘llanilgan.

Makroskopik tadqiqotlar Gurlan koni gilining namunalari bir jinsli, yashil rangli ko‘zga ko‘rinmas jigarrangli qo‘shimchali yirik bo‘laklar shaklidagi zich gilli tarkibli jins, teksturasi zich, sinig‘i g‘adir-budirli ekanligini ko‘rsatdi.

Gurlan gili namunalarning rastr elektron-mikroskopik tahlili yordamida olingan tadqiqot natijalari 1-rasmda keltirilgan. 1-rasmda gilning mikrostrukturasi qatlamli teksturaga ega bo‘lgan gidromuskovit va illit minerallarining ustun miqdorini uchratish mumkinligi, turli orientatsiyali zarrali tartibsiz kurtaklar hosil qilishi ko‘rinib turibdi. Nisbatan yirik (15-20 mkm gacha) va mayda 2-3 mkm kurtaklar aniqlangan.



a)

b)

1-rasm. Gurlan gili namunalarning rastr elektron-mikroskopik tasviri.

Kattalashtirish: a)x500; b)x5000.

Kimyoviy tahlil natijalari Gurlan koni gili kimyoviy tarkibi bo‘yicha bir jinsli xomashyo ekanligini ko‘rsatadi. Gurlan gilining o‘rtacha namunalarning kimyoviy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Gurlan koni gilining kimyoviy tahlil natijalari

Xomashyo nomi	Oksidlar miqdori, massa %									K.Y.
	SiO ₂	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	CaO	MgO	SO ₃	TiO ₂	Na ₂ O	K ₂ O	
Gurlan gili	59,01	17,14	5,93	1,23	1,35	0,25	0,51	2,32	2,22	10,04

1-jadvaldan ishqoriy va ishqoriy yer oksidlarning umumiy miqdori yuqori ($R_2O+RO>4,5\%$) ekanligi ko‘rinib turibdi, bu bo‘yovchi oksidlarning yuqori miqdori bilan birga mazkur gilni oson suyuqlanuvchanligini belgilaydi. Mayda dispers fraksiyalarning miqdoriga bog‘liq ravishda tadqiq qilinayotgan namunalar yuqori dispers (fraksiya 1 mkm gacha 60%) gilli xomashyo guruhiga mansub.

Rentgenografik tahlil natijalariga ko‘ra (2-rasm) Gurlan gili tarkibida quyidagi minerallarning muskovit $d=0,997; 0,498; 0,334; 0,256; 0,212; 0,181; 0,137$ nm, gidromuskovit $d=0,334; 0,239; 0,199; 0,138; 0,129$ nm, illit $d=0,997; 0,498; 0,446; 0,256$ nm, kvars $d=0,425; 0,334; 0,245; 0,228; 0,223; 0,212; 0,197; 0,181; 0,154; 0,138; 0,137$ nm, kaolinit $d=0,716; 0,446; 0,228; 0,137$ nm, seritsit $d=0,245; 0,223; 0,199$ nm, xlorit $d=0,140; 0,199$ nm, biotit $d=1,40; 0,334$ nm, glaukonit $d=0,197$ nm, shu bilan birga dala shpati va monmorillonit minerallarning qo‘shimchalari mavjudligi aniqlangan.

Shunday qilib, rentgenografik tahlil natijasida Gurlan koni gili kvars, kaolinit, biotit, xlorit, dala shpati va boshqa minerallarning axamiyatsiz miqdorida gidroslyudaning (muskovit, gidromuskovit, illit va seritsit) yuqori miqdoriga ega ekanligi aniqlangan.



2-rasm. Gurlan koni gilining rentgenogrammasi


Shu bilan birga mazkur bobda Gurlan koni gilini kuydirish jarayonini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Gurlan gilini kompleks termogrammasida uchta davr kuzatiladi. Birinchi davr 85-183 °C harorat intervalida 142 °C maksimum haroratda endoeffektning mavjudligi bilan xarakterlanadi va bu gidroslyuda minerallarini tavsiflovchi adsorbsion va qavatlararo suvlarning yo‘qolishi bilan bog‘liq.

Ikkinchi davr 371-593 °C harorat intervalida 554 °C maksimumi bilan gilli minerallarni gidrosil guruhini ajratishi bilan kristall panjarani parchalanishini, shu bilan birga kvarsni polimorf o‘zgarishini ifodalovchi endoeffektning tavsiflaydi. 960 °C haroratdagi kuchsiz ekzoeffekt yangi kristall fazalar asosan mullit hosil bo‘lish jarayonlari bilan bog‘liq. (3-rasm).

Tadqiq qilinayotgan Gurlan gili namunalarining pishish haroratlari namunalarning suv yutuvchanligi bo‘yicha aniqlangan. Presslangan namunalar

laboratoriya mufel pechida (850-1050 °C) harorat intervalida kuydirildi. Tadqiq qilinayotgan tajriba namunasi 950 °C da suv yutuvchanligi 5,0% dan ortiq bo‘lmagan keramik sopolak olishni ta‘minlaydi. Haroratni 1000 °C ga oshirganda suv yutuvchanlikning 2,0% gacha keskin pasayishi kuzatildi. Kirishish mos ravishda 7,3 % dan 9,2% gacha oshdi. Keyinchalik haroratni 1050°C gacha ko‘tarish namunalarni ko‘pchishiga va deformatsiyasiga olib keldi. Bu, mazkur gil GOST 9169-75 bo‘yicha past haroratda pishuvchi, o‘rtacha pishuvchan xomashyo sinfiga mansub ekanligini ifodalaydi.



3-rasm. Gurlan koni gilining kompleks termogrammasi

Zamonaviy fizik-kimyoviy tahlillar yordamida kompleks tadqiqotning natijalaridan Gurlan koni gili gidroslyudaning yuqori miqdoriga va kimyoviy tarkibida nisbatan yuqori miqdorda temir oksidi va ishqoriy oksidlariga ega, shu bilan birga mazkur gilga oson suyuqlanuvchanlikni beruvchi va oson suyuqlanuvchi flyus qo‘shimcha sifatida keramik massa tarkiblarini ishlab chiqishda va keramzit olishda asosiy komponent sifatida ishlatish imkonini beruvchi mayin disperslik va kam miqdorda mayda dispersli erkin kvarsga ega ekanligi aniqlangan.

Gurlan gili namunasining texnologik xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha olingan eksperimental natijalar tahlili, Gurlan gidroslyudali gili bir qator muhim xususiyatlariga ko‘ra, GOST 32026-2012 talablariga javob beradi va keramzit shag‘ali ishlab chiqarishda qo‘llanilishi mumkin hamda Quyiamudaryo hududi uchun yuqori sifatli gidroslyudali gil xomashyosini arzon manbasi bo‘lishi mumkin deb xulosa qilish imkonini beradi.


Kimyoviy-mineralogik tarkiblarni hisoblash natijasida va olib borilgan qator tajribaviy massalarni laboratoriya texnologik tadqiqotlari asosida Gurlan koni gili va boshqa mahalliy qo‘shimchalar asosida yuqori sifatli keramzit olish uchun massa tarkiblari ishlab chiqilgan. Keramzit massasi uchun qo‘shimcha sifatida birinchi marta gossipol smolasi va Tuproqqal’a barxan qumi ishlatilgan.

Dissertatsiyaning **“Keramzit materiallarining ko‘pchishi, fizik-kimyoviy xususiyatlari va struktura hosil qilish jarayonlarini tadqiqi, keramzit**


tarkiblarining tajriba-sanoat sinovlari” deb nomlangan **to‘rtinchi bobida** keramzitning maqbul tarkiblarini va texnologik rejimlarini ishlab chiqish bo‘yicha natijalar va sanoat miqyosida keramzit ishlab chiqarishga imkon yaratuvchi yo‘nalish tanlangan.

Tajriba keramzit massalarining ko‘pchish jarayonini tadqiq qilish turli kuydirish haroratlarida fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash yo‘li bilan, shu bilan birga kuydirishda fazaviy o‘zgarishlarni o‘rganish bilan olib borilgan. Tajriba keramzit massalarining kuydirish haroratiga bog‘liqligi 4-5-rasmlarda keltirilgan.


1020-1050 °C kuydirish haroratida massaga qo‘shilgan gossipol smolasi miqdorining oshishi bilan tajriba namunalarda (M-2, M-3 va M-4) hajmiy zichlikning kamayishi kuzatildi, M-2 va M-3 massalari uchun bu ko‘rsatkich 460 kg/m³ va 350 kg/m³ ni mos ravishda tashkil qiladi. M-4 massada gossipol smolasini 3% gacha oshirganda M-3 massasiga taqqoslaganda hajmiy zichlik miqdorining 350 kg/m³ gacha kamayishi kuzatiladi (5-rasm).



4-rasm. M-1 keramzit massasining fizik-kimyoviy xususiyatlarining kuydirish haroratiga bog‘liqligi



5-rasm. M-3 keramzit massasining fizik-kimyoviy xususiyatlarining kuydirish haroratiga bog'liqligi



6-rasm. M-7 keramzit massasining fizik-kimyoviy xususiyatlarining kuydirish haroratiga bog'liqligi

M-2, M-3 va M-4 massalari uchun 1050 °C da ko'pchish koeffitsienti mos ravishda 4,02, 4,75 va 4,82 ni tashkil qiladi.

Bundan tashqari M-4 massa namunalarning mexanik mustahkamligi va kuydirish intervali 0,6 MPa gacha va 40 °C ga mos ravishda pasayadi. Shuni ta'kidlash lozimki, M-4 massasidan namunalarning mexanik mustahkamligi GOST 9757-90 talablariga mos kelmaydi.

Shundan kelib chiqib, organika sifatida qo'shilgan gossipol smolasining maksimal miqdorini 2% deb qabul qilindi.

Namunalarning mexanik mustahkamligini oshirish maqsadida va massalarni kuydirish intervalini uzaytirish uchun tajriba massalariga shu bilan birga Tuproqqal'a massivining barxan qumi 2-10% miqdorda qo'shilgan.

M-5, M-6, M-7, M-8 va M-9 massalariga gossipol smolasi 2% miqdorda qo'shilgan. Tajriba massalarida (M-5, M-6, M-7) 1050 °C da barxan qumi miqdorining oshishi bilan oldin hajmiy zichlik oshadi va ko'pchish koeffitsienti ahamiyatsiz pasayadi, namunalarning mexanik mustahkamligi jadal oshadi. Kuydirish intervali va pishish holati intervali kengayadi (6-rasm). M-8 va M-9 tajriba massalarida keyinchalik barxan qumini miqdorini oshirish bilan hajmiy zichlik ko'rsatkichining ahamiyatsiz oshishi va ko'pchish koeffitsientining pasayishi davom etadi, namunalarning mexanik mustahkamligining jadallashishi esa kuchsizlanadi. M-7 tajriba massasi uchun kuydirish intervali 80 °C ni tashkil qiladi, M-9 massa uchun esa bu ko'rsatkich 60 °C gacha pasayadi.

Shunday qilib, M-3 massasi uchun haroratni 1020 °C dan 1050 °C gacha, M-7 massa uchun 1020 °C dan 1080 °C gacha oshirish, xajmiy zichlik, ko'pchish koeffitsienti va mexanik mustahkamlikga bog'liklik egri chiziqlari gorizontaal chiziqqa silliq o'tadi, bu materialni ko'pchish jarayonida maksimal ko'rsatkichlarga erishilganligi haqida dalolat beradi.

Tadqiq qilinayotgan ko'pchigan namunalarning suv shimuvchanligi <20%. M-3 massasi uchun 1080 °C da hajmiy zichlik va mexanik mustahkamlik 410 g/sm³ va 1,4 MPa gacha oshdi. M-7 massasi uchun 1110 °C da hajmiy zichlik va mexanik mustahkamlik 400 g/sm³ gacha va 2,4 MPa ga oshadi.


Keyinchalik namunalarning kuydirish haroratini M-3 uchun 1080 °C gacha va M-7 uchun 1110 °C gacha oshirish hajmiy zichlikning 410 kg/m³ va 400 kg/m³ mos ravishda oshishi, ko'pchish koeffitsientining 4,41 va 4,49 sezilarli darajada kamayishi kuzatiladi. Namunalarda suyuqlanish alomatlari paydo bo'ladi, namunalarning zichligini oshishi boshlanadi, ko'pchish jarayoniga teskari bo'lgan deformatsiya elementlari paydo bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, M-7 massasidan olingan tajriba namunalari ko'pchish koeffitsienti, hajmiy zichlik va mustahkamlik ko'rsatkichlari M-A3 etalon massasi namunalaridan ustunlik qiladi. M-1 massasidan esa u hajmiy zichlikni kamligi bilan, M-3 massasidan esa mexanik mustahkamlik ko'rsatkichini yuqoriligi bilan farqlanadi. Kuydirish intervali va shunga mos ravishda pishish xolati intervali bo'yicha M-7 massasi ikkala tajriba massasidan ustundir. Shunga bog'liq ravishda, keyingi ancha keng tadqiqotlar uchun, M-7 maqbul massasidan olingan keramzit namunalari tanlangan.

M-7 maqbul massasidan turli haroratlarda kuydirilgan namunalarning rentgenogrammalari 7-rasmda keltirilgan.

1050 °C haroratda kuydirilgan M-7 massasi tajriba namunalari rentgenogrammalarida mullit $d=0,242; 0,228; 0,219; 0,200$ nm, anortit $d=0,334; 0,213; 0,183$ nm, diopsid $d=0,290; 0,228; 0,203; 0,200; 0,183$ nm, vollastonit $d=0,388; 0,253; 0,200; 0,181$ nm, kvarts $d=0,425; 0,334; 0,245; 0,228; 0,200; 0,183; 0,181$ nm, kristobalit $d=0,253$ nm, tridimit $d=0,228; 0,208$ nm, gematit $d=0,365; 0,243; 0,219; 0,203; 0,183$ nm va gelenit $d=0,370; 0,253; 0,243; 0,181$ nm intensiv chiziqlari aniqlangan.

M-7 tajriba massasida suyuq faza va mullit, kvarts, gematit, gelenit va diopsid kristallarining hosil bo'lishi 950 °C haroratda paydo bo'lishi kuzatiladi, anortit, kristobalit va vollastonit kristallari esa 1000 °C da, 1050 °C da esa tridimitni paydo bo'lishi, mullit va boshqa kristall fazalarning kristallanishi kuzatiladi. Tadqiq qilinayotgan keramzitda shisha fazani miqdorini oshishi to'g'risida amorf galo integral maydonlari va rentgenogrammada difraksiyon aks etish nisbatlari dalolat beradi.




7-rasm. Turli haroratlarda kuydirilgan M-7 keramzit massasining rentgenogrammasi


1050 °C haroratda kuydirilgan M-7 maqbul massasidan olingan keramzit materiallari mikrostrukturasi tadqiqi (8-11 rasmlar), undagi g'ovaklar M-A3 etalon massasidagi namunalarga nisbatan ancha bir jinslikda taqsimlanganligini ko'rsatdi. Asosan gidroslyudali minerallarning suyuqlanishi hisobiga hosil bo'lgan silikat suyuqlanma asosiy massa bilan birlashadi.

Namunalar o'rtacha g'ovak o'lchami 0,05-0,1 mm bo'lgan murakkab tartibsiz tuzilishga ega, g'ovaklar asosan mayda, yopiq va tekis taqsimlangan ko'rinishda ifodalangan.



Shunday qilib, massa komponentlarini qo'llanilgan kompozitsiyasi tajriba namunalarining fizik-mexanik xususiyatlarini oshishiga olib keluvchi anortit, mullit va vollastonit kristallarining tajriba massalarida hosil bo'lishiga ta'sir qilganligi o'rnatilgan, sintez qilingan keramzit materiallarining fazaviy tarkiblari asosan mullit, anortit, kvars va boshqa kristallar orasidagi bo'shliqlarni to'ldiruvchi shishasimon faza bilan ifodalanganligi aniqlangan.





8 rasm. 1050 °C haroratda kuydirilgan M-7 massasidan olingan keramzitning elektron-mikroskopik tasviri (kat. x200)



9 rasm. 1050 °C haroratda kuydirilgan M-7 massasidan olingan keramzitning elektron-mikroskopik tasviri (kat. X400)




10 rasm. 1050 °C haroratda kuydirilgan M-7 massasidan olingan keramzitning elektron-mikroskopik tasviri (kat. X1000)



11 rasm. 1050 °C haroratda kuydirilgan M-7 massasidan olingan keramzitning elektron-mikroskopik tasviri (kat. X4000)

Korxonada sanoatga tadbiq qilish natijasida keramzit shag‘ali ishlab chiqarishda Gurlan gili, Tuproqqal’a barxan qumi va gossipol smolasi kabi samarador mahalliy xomashyo materiallarini kompleks ishlatish natijasida hajmiy zichlikni kamayishi, mexanik mustahkamlikni oshishi va kuydirish haroratini 100°C ga pasayishi aniqlangan.

Ilmiy-tadqiqot ishlari va maqbul namunaning sanoat-sinov tajribalari natijasida M-7 massasi xomashyo tarkibi keramzit shag‘ali olish uchun tavsiya qilingan va uni ishlab chiqarish texnologik sxemasi ishlab chiqilgan (4.17 rasm).



4.17 rasm. Gurlan gili va to‘g‘rilovchi qo‘shimchalar asosida keramzit shag‘ali ishlab chiqarish texnologik sxemasi

1-gil ombori, 2-tovoqli transporter, 3-jag‘li maydalagich, 4-valli maydalagich, 5-lentali dozator, 6-ikki valli aralashtirgich (quruq), 7-vibratsion elak, 8-barxan qumi uchun bunker, 9-shnekli dozator, 10-gossipol smolasi uchun bak, 11- shesternyali nasos, 12-forsunka, 13-suvli bak, 14- ikki valli aralashtirgich (nam), 15-panjarali press, 16-barabanli quritgich, 17-elevator, 18- aylanma pech, 19- barabanli sovutgich.

XULOSALAR

1. Fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullarini qo'llab Gurlan koni gilini modda tarkibi va sifat xarakteristikalarini o'rganilgan. Gurlan gili asosiy oksidlar miqdori va asosiy ko'rsatkichlariga ko'ra, mineral tarkibi "Keramzit shag'ali, toshi va qumi" ishlab chiqarish uchun qo'llaniladigan GOST 32026-2012 talablariga javob berishi aniqlangan.

2. Birinchi marta Gurlan gili asosida gossipol smolasi va Tuproqqal'a barxan qumi kabi mahalliy to'g'rilovchi qo'shimchalarni qo'llab samarador keramzit massalari ishlab chiqilgan. Ular, respublikaning mavjud keramzit korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan fizik-mexanik xarakteristikalarini bo'yicha ustun bo'lgan keramzit shag'alini olish imkonini bergan.

3. Birinchi marta keramzit olishda gossipol smolasi organik to'g'rilovchi qo'shimcha sifatida qo'llanilishi aniqlangan. Gossipol smolasi, qaytaruvchi rolini o'ynab, ko'pchilik jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi isbotlangan.

4. To'g'rilovchi mineral qo'shimcha – barxan qumini tajribaviy massalarga oz miqdorda qo'shish, g'ovak to'ldiruvchi strukturasi armirolovchi rolini o'ynab, tajribaviy keramzit namunalari mexanik mustahkamligini oshirishi va ko'pchilik intervalini uzaytirishi aniqlangan.

5. Tadqiq qilinayotgan tajriba massalaridan nisbatan yaxshi fizik-mexanik xususiyatli maqbul tarkib deb M-7 massasi tanlangan. M-7 maqbul massasidan olingan keramzit materiallari fizik-mexanik xususiyatlariga ko'ra, GOST 9757-90 talablariga javob berishi, hamda hajmiy zichligi, mexanik mustahkamligi va kuydirish intervali bo'yicha etalon massadan ustun ekanligi aniqlangan. Shuni ta'kidlash lozimki, M-7 maqbul massasidan 380 kg/m^3 hajmiy zichlikka ega bo'lgan yengil va yetarlicha mustahkam keramzit materiali olingan.

6. Sintez qilingan keramzit materiallarining fazaviy tarkiblari mayda va tekis taqsimlangan mikrog'ovaklar, romboedrik gabitusli yengil suyuqlangan kvarsning mayda kristallari va prizmatik gabitusli donali suyuqlangan kvars kristallari, anortit va gematit, diopsid, vollastonit, kristobalit va kalta prizmatik qiyofali mullit kristallari bilan ifodalangan.

7. M-7 samarador keramzit massasi tarkibida Gurlan gilini qo'llash, etalon massaga nisbatan kuydirish haroratini $70-100 \text{ }^\circ\text{C}$ ga pasaytirish imkonini berishi, yoqilg'i-energetik resurslarni tejashi va keramzit shag'alining tannarxini pasaytirishi isbotlangan. Keramzit massalarini sanoatda aprobatsiya qilish natijasida "Azkamar" MChJ va "Triumf gorniyak" MChJ korxonalarida olingan keramzit shag'alining tajriba-sanoat partiyasi GOST 9757-90 talablariga javob berishi aniqlangan. Ishlab chiqilgan keramzit massa tarkiblarini "Azkamar" MChJ va "Triumf gorniyak" MChJ korxonalarida qo'llashdan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik yiliga mos ravishda 1084 840,0 ming va 1210 391,6 ming so'mni tashkil qildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 03/30.12.2019. Т.20.03 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ
КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

УРГЕНЧЕСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АЛЛАМОВ РАХМАТУЛЛА ГУЛМИРЗАЕВИЧ

**РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНЫХ СОСТАВОВ МАСС И ТЕХНОЛОГИЯ
ПОЛУЧЕНИЯ КЕРАМЗИТА НА ОСНОВЕ ГУРЛЕНСКОЙ ГЛИНЫ**

02.00.13 - Технология неорганических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2024.4.PhD/Т3038 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхона Беруний.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.karsu.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Бойжанов Ислом Ражабович

Кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Оразымбетова Гулистан Жакселиковна

доктор технических наук, профессор

Досанова Гулзар Мауленбергеновна

доктор философии технических наук (PhD),
доцент

Ведущая организация:

**Навоийский государственный горно-
технологический университет**

Защита диссертации состоится « » _____ 2026 году в « ⁰⁰ » часов на заседании Научного совета PhD. 03/30.12.2019.Т.55.06 при Каракалпакском государственном университете по адресу: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99861) 223-60-47; факс: (+99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за №337). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99861) 223-60-47.

Автореферат диссертации разослан « » _____ 2026 года
(реестр протокола рассылки № от « » _____ 2026 года

А.М. Реймов

Председатель научного
совета по присуждению ученой
степени, д.т.н., проф., академик

Р.К. Курбаниязов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученой степени,
д.т.н. доцент

Ш.Н. Туремуратов

Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученой степени, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации (PhD) доктора философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в последние годы в производстве строительных материалов ведущее место занимает выпуск продукции с использованием энерго- и ресурсосберегающих технологий, в том числе разработка новых эффективных составов масс для получения высококачественных инновационных теплоизоляционных строительных материалов. В этом направлении большое значение имеет разработка технологий снижения энергозатрат при производстве легковесного керамзитового гравия, получаемого при высокотемпературном обжиге, являющийся пористым наполнителем.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, посвященные созданию энергоэффективных строительных материалов на основе инновационных технологий. В том числе в этом направлении особое внимание уделяется исследованию процессов происходящих в сырьевых смесях во время обжига и вспучивания керамзитовых масс и их последовательности, процессам образования жидкой и газовой фазы, влияющие факторы на него, процессы формирования структуры и фазовый состав керамзитовых гранул, изучение влияния на образование муллита, анортита, кварца и других кристаллов химико-минералогического состава и технологических режимов, на основе новых сырьевых материалов и отходов промышленности разработка составов и методов для получения легковесного керамзита с наилучшими свойствами вспучивающихся при низких температурах обжига.

В Республике промышленность по производству строительных материалов является одной из бурно развивающихся отраслей. В последние годы в нашей республике уделяется большое внимание развитию этой отрасли, в том числе жилищного строительства. В третьем направлении Стратегии развития Нового Узбекистана предусмотренного на 2022–2026 года по «...продолжение промышленной политики, увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте и наращивание объёмов производства промышленной продукции в 1,4 раза...»¹ определены важнейшие задачи. В связи с этим важное значение приобретает ускоренное развитие и диверсификация промышленности строительных материалов, разработка инновационных технологий производства пористых наполнителей при пониженных температурах с применением эффективных составов масс, недорогих глинистых сырьевых ресурсов и корректирующих добавок, а также привлечение инвестиций для переработки местного минерального сырья.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в указах Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 29 января 2022 года № ПФ-60 «О стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы»

Узбекистана на 2022 — 2026 годы»¹ и в постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-4198 от 20 февраля 2019 года «О мерах по коренному совершенствованию и комплексному развитию промышленности строительных материалов», ПП-4335 от 23 мая 2019 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности строительных материалов», УП-6244 от 9 июня 2021 года «О дополнительных мерах по повышению промышленного потенциала регионов», ПП-139 от 21 февраля 2022 г. «О дополнительных мерах по поддержке строительства жилья и промышленности строительных материалов», а также в других нормативно-правовых документах, принятых по данной сфере.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Настоящая работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: II «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение» и VII «Химическая технология и нанотехнология».

Степень изученности проблемы. Ведущие ученые мира такие как С.П.Онацкий, И.А.Гервидс, Г.И.Книгина, Н.И.Макридин, J.C.Guband, Н.Н.Thone, P.Gorman, В.В.Еременко, Е.А.Колесников, В.П.Петров, Н.Г.Чумаченко, В.З.Абдрахимов, К.А.Бисенов и другие провели обширные научные исследования и достигли важных результатов по разработке составов и методов для получения высококачественного керамзита на основе глинистых сырьевых материалов, добавляя к ним различные природные добавки и отходы и усовершенствованию существующих технологий производства.

